


**QASHQADARYO VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024- YIL YANVAR-IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 3 120 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 057 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 33,9 % i) Qarshi shahriga, 618 tasi (19,8 %) Kitob tumaniga, 541 tasi (17,3 %) Yakkabog' tumaniga, 434 tasi (13,9 %) Qarshi tumaniga va 432 tasi (13,8 %) G'uzor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi

Jami yangi tashkil etilgan



Qarshi sh.	57
575	
Yakkabog' t.	42
276	
G'uzor t.	33
201	
Qamashi t.	32
135	
Qarshi t.	31
219	
Shahrisabiz sh.	29
260	
Nishon t.	29
98	
Shahrisabiz t.	28
218	
Koson t.	28
155	
Kitob t.	26
371	
Ko'kdala t.	26
84	
Kasbi t.	21
114	
Muborak t.	13
91	
Mirishkor t.	11
92	
Chiroqchi t.	11
160	
Dehqanobod t.	9
71	

● ● Faoliyat yuritayotgan




Yangi tashkil etilgan

Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'mol mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 091,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (27 733,0 ming so'm), G'uzor tumanida (9 669,4 ming so'm) hamda Qarshi shahrida (7 648,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 777,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



*Viloyatda aholi jon boshiga sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi*

4,8 mln. so'm




ming. so'mda

o'sish sur'ati, % da




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13 767,6 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,6 % ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishdagi yuqori ulush Nishon tumani (27,2 %), Qarshi shahri (13,3 %), G'uzor tumani (12,6 %) Qarshi tumani (8,5 %) hamda Kasbi tumani (6,3 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Muborak tumanida (109,4 %), Qarshi tumanida (109,3 %) hamda Shahrisabz (108,4 %) shahrida kuzatildi.




yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)


Propan va Butan




Neft



Tabiiy gaz



Gaz kondensati



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Propan va Butan, ming t.	58,5	65,8	7,3
Neft, ming t.	5,9	5,4	- 0,5
Tabiiy gaz, mln. kub.m	42,1	32,6	- 9,5
Gaz kondensati, ming t.	52,3	56,3	4,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida




Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13 767,7 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 80,6 % ni tashkil etdi.


Qarshi sh.	142,4
1 202,8	
Muborak t.	119,8
382,1	
Koson t.	112,6
648,7	
Kitob t.	109,2
768,2	
Qarshi t.	109,0
1 440,4	
Shahrisabz t.	108,9
319,4	
Ko’kdala t.	108,4
162,2	
Kasbi t.	106,8
1 068,1	
Qamashi t.	106,8
551,3	
Mirishkor t.	106,0
420,3	
Shahrisabz sh.	105,9
348,7	
Yakkbog’ t.	105,7
560,0	
Chiroqchi t.	105,0
471,9	
G’uzor t.	104,2
2 097,5	
Dehqonobod t.	101,9
544,6	
Nishon t.	89,1
2 781,5	

mlrd. so’mda


FHI, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 17,1 % (15,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,3 % (25,4 %), quyi texnologiyali 55,3 % (40,1 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 1,8 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 201,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 129,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 34,5 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,5 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,6 % (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,0 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 184,3 ming tonna dizel yoqilg'isi (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 90,0), 41,9 ming tonna kalava ip (126,6 %), 906,9 ming litr aroq mahsulotlari (91,4 %) hamda 16,1 ming tonna yumshoq bug'doy va sepelta uni (84,6 %) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Paxta linti, ming t.	2,2	2,5	0,3
Aroq, ming litr.	991,8	906,9	- 84,9
Kalava ip, ming t.	33,1	41,9	8,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	19,1	16,1	- 0,3
Paxta tolasi, ming t.	38,3	48,0	9,7

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 129,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 13,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 123,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 869,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,3 % ga o‘sdı va ishlab chiqarish hajmi 2 588,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distirlangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 124,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 98,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 24,0 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 4 101,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 132,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 545,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 340,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.

2024- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 151,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 79,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 92,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 106,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	4 068,0	3 756,4	- 311,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 684,6	1 791,7	107,1

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 134,7 % hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 116,1 % ga teng ekanligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	5 177,9	6 010,2	832,3
Suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	52 832,6	70 166,3	17 333,7

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 158,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,2 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,2 % ni tashkil etgan.


yanvar-iyun
mlrd.soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi



yanvar-iyun
ulushi, % da



Ko'kdala t.	100,0
162,3	
Chiroqchi t.	87,2
420,5	
Shahrisabz sh.	87,1
314,2	
Shahrisabz t.	69,3
244,7	
Mirishkor t.	67,2
282,8	
Muborak t.	65,4
353,4	
Qamashi t.	59,3
329,9	
Qarshi sh.	48,1
1 091,5	
Koson t.	45,1
319,9	
Yakkabog' t.	43,4
243,4	
Kitob t.	36,2
293,7	
Dehqonobod t.	27,2
148,1	
Qarshi t.	22,1
319,2	
Kasbi t.	16,3
174,9	
G'uzor t.	9,4
203,4	
Nishon t.	5,5
256,6	

● mlrd. soʻmda

Ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 51 ta loyiha bo'yicha 3 232,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 85,4 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 253 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

